

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI

JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO'YICH A MUTAXASSISLARNI QAYTA
TAYYORLASh VA MALAKASINI OShIRISH INSTITUTI SAMARQAND
FILIALI



“OLIMPIYA BILIM ASOSLARI” MODULI


“Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi” yo'nalishi bo'yicha umumiyl o'rta ta'lim
muassasalari pedagog kadrlarini malakasini oshirish kursi uchun

O'qituvchi: A'zamxonov Oltinxon Ashrafxon o'g'li


1-mavzu: Qadimgi Olimpiya o‘yinlari tarixi.

Reja:

- 1. Qadimgi olimpiya o‘yinlari tarixi.**
- 2. Qadimgi olimpiya o‘yinlarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahamiyati.**



Tarixdan yaxshi ma'lumki, Olimpiya o'yinlari dastavval Qadimgi Yunonistonda diniy va sport bayrami sifatida o'tkazilgan. Qadimgi yunonlarning jamoat va madaniy hayotida afsona va afsonalar muhim ro'l o'ynagan. Qadimgi Olimpiya o'yinlari doimiy ravishda har to'rt yilda bir marta o'tkazilgan va Zevs sharafiga bag'ishlangan. Qadimgi yunonlar Olimpiya o'yinlarini buyuk xudolari-qudratli va dono Zevsga bag'ishlaganlar. Yunonlar oliy iloh Zevsni "**Yashin chaqnatuvchi**", "**Bulutlarni haydovchi**", beqiyos qudrat timsoli, "**Hayot baxsh etuvchi**", "**Xaloskor**" ma'budi sifatida e'zozlaganlar. Yozma manbalarga asoslangan ma'lumotlarga ko'ra bu bayramlarning boshlanishi ikki yunon davlati – **Elida** va **Sparta** davlatlari o'rtasida tinchlik o'rnatilishi bilan boshlangan.




Birinchi Olimpiya o‘yinlari eramizdan oldin 776-yilda shox **Ilidi** va **Ifit** tomonidan siyosiy maqsadlarni ko‘zlangan xolda tashkil etilib, o‘tkazila boshlangan. O‘yinlar Peloponss yarim orolining Alfey daryo atrofida, Kronos tog‘ bag‘rida joylashgan Olimpiya qishlogida birinchi qadimgi olimpiya o‘yinlari o‘tkazilgan. O‘yinlar o‘tkaziladigan vaqtda butun Yunonistonda “**Muqaddas tinchlik**”, “**Ekexeyriya**” e’lon qilingan va 3 oy davom etgan.

Olimpiya o‘yinlari dastlab bir kun o‘tkazilgan va bayram kunlari “**Iyeromeniya**” – “**Muqadas oy**” deb nomlangan. Bu bayram vujudga kelgan paytida diniy xarakterga ega bo‘lgan, lekin uning asosiy mazmunini atletika musobaqalari tashkil etgan. Miloddan avvalgi V asrga kelib, qadimgi olimpiya o‘yinlari 5 kun davom etgan.





Birinchi kun Qadimgi Olimpiya o‘yinlarining ochilish marosimi bo‘lgan. Olimpiya bayramining boshlanishi to‘rt marotaba karnay chalinishi bilan bildirilgan. Musobaqa ishtirokchilari, murabbiylar va hakamlar Zevs xudosiga qasamyod aytganlar.



Tantanali ochilish marosimi davomida jangchi tomonidan qatnashuvchi atletlarning ismi, kasbi, kelgan shahri e’lon qilingan. Olimpiadaning birinchi kunida xudolarga qurbanliklar keltirilgan.



Ikkinchı kun Yoshlar o‘rtasida yugurish, sakrash, disk, nayza uloqtirish, va qo‘l jangi bo‘yicha musobaqalar o‘tkazilgan.



Uchinchi kun Olimpiadaning eng katta kuni – katta yoshli atletlarlar o‘rtasida **yugurish, sakrash, disk va nayza uloqtirish, kurash, qo‘l jangi** bo‘yicha musobaqalar o‘tkazilgan.



To‘rtinchi kun Eng nufuzli hisoblangan ot aravalarda poyga bo‘yicha hamda qurol aslaho bilan yugurish musobaqalari o‘tkazilgan.




Beshinchi kun G‘oliblar e’lon qilingan, taqdirlash marosimi bo‘lgan. Qadimgi Olimpiya o‘yinlarining g‘oliblari “**Olimpionik**” deb nomlangan va ular sharafiga qo‘shiqlar aytilgan.



Qadimgi Olimpiya o‘yinlarida “**Ellanodik**” - Hakamlar rahbarlik qilgan. Ellanodiklar Elida fuqarolari orasidan o‘yinlar boshlanishidan bir yil oldin chek tashlash asosida 9-nafardan 18-nafargacha ellanodiklar saylangan. **Ellanodiklarning vazifasi** musobaqalar joyini tayyorlash, musobaqa ishtirokchilarini tanlash, musobaqalarning borishini kuzatib turish va musobaqa g‘oliblariga mukofotlar berishdan iborat bo‘lgan.

Qadimgi Olimpiya o‘yinlariga faqat erkin yunonlar qatnashishi xuquqiga ega bo‘lganlar. Olimpiya o‘yinlarga qullar, ayollar, xorijiylar, jinoyatchilar va qurollangan odamlar kiritilmagan.



Qadimgi Gretsiyada har yili **Demetra** yoki “**Sog‘lom farzand**” tanlovlarini o‘tkazish an’anasi kiritilgan edi. Mazkur ko‘rikda eng sog‘lom va ko‘rkam bolalar aniqlanib, ularning onalari taqdirlangan.

Olimpiya o‘yinlarining asosiy g‘oyasi inson barkamolligi, aqliy va jismoniy yetukligini namoyishi bo‘lgan. Shuning uchun ilk umumellin bayramlarida kuchlilik, chaqqonlik, epchillik bo‘yicha musobaqalar musiqa, she’riyat tanlovlariga ulanib ketgan.

Olimpia o‘yinlarida jismoniy go‘zallikka aqliy salohiyat, musiqiy, ba’diiy, tasviriy iste’dod ruhi uyg‘un bo‘lgan. Olimpiya o‘yinlari doirasida san’at, adabiyot, musiqa, me’morchilik bo‘yicha tanlovlar o‘tkazilgan.



Qadimgi davrda **Nemey** o‘yinlari, **Istma** o‘yinlari, **Pifiya** o‘yinlari, **Panafina** o‘yinlari kabi musobaqalar keng tarqalgan edi.

Olimpiya o‘yinlari

Qadimgi Yunonistonning eng mashhur va eng ommaviy musobaqalari hisoblanib, alohida ahamiyatga ega bo‘lgan.

Olimpiya o‘yinlari qadimdan eng e’zozlangan bayramlardan biri bo‘lgan. Qadimgi yunonlar insonning barkamol rivojlanishi aqliy, ma’naviy, estetik va jismoniy tarbiyadan iborat bo‘lishi kerak deb hisoblaganlar.

Qadimgi Olimpiya o‘yinlarining asosiy maqsadi ham shu bo‘lgan.

Qadimgi Olimpiya o‘yinlarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahamiyati.

1. Iqtisodiy - Olimpiya shahri savdo sotiq markaziga aylangan va polislar (viloyatlar) aro shartnomalar tuzilgan.

2. Siyosiy - Ekexeyriya tufayli polislar (viloyatlar) o‘rtasidagi siyosiy munosabatlar yaxshilangan.

3. Xarbiy - Qadimgi o‘yinlarda davlatlar o‘z xarbiy qudratini va jangchilarni xarbiy va jismoniy tayorgarligini namoyish qilingan.

4. Madaniy – O‘yinlarning madaniy dasturida faylasuflar, tarixchi olimlar, shoyir va yozuvchilar o‘z asarlari bilan qatnashganlar.

**E'TIBORINGIZ UCHUN
RAHMAT!!!**